



Innovatsion texnologik topshiriqlaq asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik o'ziga xosliklar.

G'iyosiddinova
Mahmuda Alisher qizi

QDPI o'qituvchi.
giyosiddinovamahmuda@gmail.com

Annatatsiya: Kreativ fikrlash – bu bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy faoliyatida yuzaga keladigan turli xil pedagogik vaziyatlarga nisbatan nostandart, samarali, innovatsion qarorlar qabul qilish, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalovchi integrativ tafakkur shaklidir.

Kalit so'zlar: Kreativ fikr, ijodiy fikr, pedagogika, texnologiya, innovatsiya, g'oya, madaniyat, intellectual, topshiriq, nazariy.

Аннотация: Творческое мышление – это форма интегративного мышления, выражающая способность будущего учителя начальных классов принимать нестандартные, эффективные, новаторские решения, выдвигать новые идеи и реализовывать их на практике применительно к различным педагогическим ситуациям, возникающим в его профессиональной и личной деятельности.

Ключевые слова: Творческое мышление, креативное мышление, педагогика, технология, инновация, идея, культура, интеллектуальный, задача, теоретический.

Annotation: Creative thinking is a form of integrative thinking that expresses the ability of a future primary school teacher to make non-standard, effective, innovative decisions, put forward new ideas, and put them into practice in relation to various pedagogical situations that arise in their professional and personal activities.

Key words: Creative thinking, creative thinking, pedagogy, technology, innovation, idea, culture, intellectual, task, theoretical.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar va huquqiy islohotlar, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlar ta'lim tizimi oldiga ham mutlaqo yangi vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan yuqori malakali, kasbiy-intellektual innovatsion texnologik salohiyatga ega pedagogik kadrlarni tayyorlash masalasi bugungi kunning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bu borada 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da intellektual innovatsion texnologik salohiyatli avlodni shakllantirish asosiy tamoyil sifatida belgilangan bo'lib, bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning

nazariy bilimlardan tortib, amaliy faoliyatgacha bo'lgan tayyorgarlik bosqichlarini qamrab oladi.

Har tomonlama yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli, o'zining kreativ fikriga ega, yurt ravnaqi yo'lida faol ishtirok etishga qodir barkamol shaxsni tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimida chuqur ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etadi. Bu jarayonda o'qitish samaradorligini oshirish uchun ta'lim mazmunini yangilash bilan bir qatorda, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni, xususan, innovatsion texnologik topshiriqlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlar orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari nafaqat nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni amaliyotda qo'llash, ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Shu bois, innovatsion texnologik topshiriqlarga asoslangan yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki pedagogik jarayonda kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kreativlikka yo'naltirish, ularning o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhitga moslasha olish qobiliyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Innovatsion texnologik topshiriqlar orqali ta'lim jarayoniga yondashuv esa nafaqat talabalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, balki pedagogik faoliyatning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi dinamik o'zgarishlarini ham belgilaydi.

Mazkur yondashuvning shakllanishiga tarixiy-madaniy asoslar ham mavjud bo'lib, uni xronologik jihatdan tahlil qilganda, ijodiy metodlarga asoslangan ta'lim tamoyillari qadimgi yunon faylasuflari, xususan Suqrot davridan boshlanganini kuzatish mumkin. U ilk bor suhbatdoshning ichki salohiyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi savol-javob asosidagi ijodiy uslubni amaliyotga tatbiq etgan. Bu yondashuv orqali o'quvchi muammoni mustaqil anglash va hal etish jarayoniga faol jalb qilingan.

Innovatsion texnologik topshiriqlarga asoslangan pedagogik yondashuv bugungi kunda kundalik hayotda duch kelinadigan turli masalalarga noodatiy, kreativ yondashuvlarni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlar g'ayrioddiy vaziyatlarga g'ayrioddiy yechimlarni topish jarayonida fikrlashning moslashuvchanligi va yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu bois, kreativlik har qanday sohada mavjud stereotip va andozalardan chekinib, yangilik yaratishga intilish, mavjud faoliyatni yangicha ko'rinishda tashkil etishga xizmat qiluvchi universal kompetensiya sifatida talqin etiladi.

Kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining mazmun-mohiyatini chuqur anglash uchun shaxsda, eng avvalo, "kreativlik" tushunchasining ilmiy asosda izohlanishi zarur hisoblanadi. Mashhur tadqiqotchi Ken Robinson ushbu tushunchani "asl va o'z qiymatiga ega g'oyalarning yaratilishi" deb talqin etadi. H. Gardner esa kreativlikni "shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy faoliyat bo'lib, u muayyan yangilikni aks ettirishi va aniq amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim" degan izohni beradi. Emebeyl esa kreativlikni insonda mavjud chuqur bilimlar bilan birga, yuqori

darajadagi noodatiy fikrlash va innovatsion yondashuv ko'nikmalarining uyg'unlashuvi sifatida tavsiflaydi [132; 4-b.].

Ilmiy adabiyotlarda intellekt va kreativlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi bo'yicha bir necha xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlar bu ikki tushuncha bir-biridan mustaqil ekanini ta'kidlasa, boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa ularning o'zaro bevosita bog'liqligini asoslab berishga intilganlar [132; 4-b.].

Mavjud psixologik tadqiqotlarda ushbu masalaga oid uch asosiy nazariy yondashuv shakllangan. Birinchi nazariy yo'nalish vakillari (D. Veksler, G. Ayzenk, L. Terman, R. Sternberg) intellekt va kreativlikni inson qobiliyatining oliy shakllari sifatida ko'rib, ularni bir butun tizim sifatida talqin qiladilar. Masalan, G. Ayzenk kreativlikni intellektual salohiyatning individual ifodasi sifatida ko'radi va kreativlikning yuzaga chiqishi intellekt darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi [132; 4-b.].

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa intellekt va kreativlik orasida bevosita bog'liqlik yo'qligini ilgari suradi. Ularning fikricha, kreativlik insonning atrof-muhitga moslashuvi emas, balki uni o'zgartirish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, Dj. Gilford o'z nazariyasida kreativlik va intellektni qarama-qarshi kategoriyalar sifatida ko'rib, tafakkurning konvergent va divergent shakllarini farqlaydi [34]. Konvergent fikrlash muammoni hal qilishda mavjud variantlar orasidan yagona eng maqbulini tanlashga yo'naltirilgan bo'lib, u asosan intellektual tahlil asosida amalga oshiriladi. Divergent tafakkur esa muammoga bir nechta ijodiy yechimlarni yaratishga asoslangan bo'lib, aynan kreativlikning asosi hisoblanadi. Bu yondashuvga ko'ra, intellekt va kreativlik umumiy fikrlash faoliyatining turli qirralari bo'lib, ularni inson miyasida axborotni qayta ishlash jarayonidagi turli funksiyalar bilan bog'lash mumkin. Kreativlik mavjud bilimlar asosida yangi modellar yaratish qobiliyatida namoyon bo'lsa, intellekt esa ushbu bilimlarni real hayotiy sharoitlarga moslashtirish va qo'llash qobiliyatidir.

Uchinchi nazariy yondashuv vakillari esa intellekt va kreativlikni o'zaro uzviy bog'langan, lekin alohida tarkibiy omillar sifatida talqin qiladilar. Masalan, A. Maslou va boshqa mutaxassislar kreativlikni mustaqil qobiliyat sifatida emas, balki shaxsning individual jihatlariga bog'liq bo'lgan faoliyat turi deb ko'radilar [57]. Ularning fikricha, kreativlik faollik darajasini belgilab beruvchi shaxsiy fazilatlar (qiziqish, riskka moyillik, tashabbuskorlik va boshqalar) bilan belgilanadi. Biroq bunday ijodiy faollikning yuzaga chiqishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual salohiyat bo'lishi shart. Ya'ni, past intellektli insonning yuqori darajadagi kreativlik namoyon etishi deyarli mumkin emas, degan fikr ilgari surilgan.

Pedagogika-psixologiya fanlarida "kreativlik" tushunchasining qo'llanilishi XX asrning ikkinchi yarmiga, xususan 1960-yillarga to'g'ri keladi. Shu davrdan boshlab, inson tafakkurining innovatsion va ijodiy jihatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar keng rivojlana boshladi. Kreativlik masalasiga alohida e'tibor qaratgan tadqiqotchilardan biri bo'lgan I. Miloslavskiy o'zining "Kreativ yoki ijodkor" nomli ilmiy maqolasida bu tushunchaga ikki tomonlama yondashuvni ilgari surgan. [63]. Uning ta'kidlashicha, kreativlikni faqat g'oya yoki fikrlar yaratish sifatida

baholash yetarli emas; bu jarayonning mazmun-mohiyatini to'liq anglash uchun uni amaliy natijaga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ham ko'rish lozim.

Miloslavskiy fikricha, kreativlik — bu inson tafakkurining samarali namoyoni bo'lib, u muayyan yakuniy mahsulotni yaratishga qaratilgan ongli harakatlar tizimini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, bu atama faqatgina original fikrlar ilgari surishni emas, balki ushbu fikrlarning aniq, amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan shaklga keltirilishini, ya'ni ularning real natijaga aylanishini ham nazarda tutadi. Shu boisdan, kreativlik jarayonini samarali ijodiy faoliyat sifatida baholashda, nafaqat intellektual imkoniyatlar, balki amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yechimlar yaratish qobiliyati ham muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni –O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarori / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son; 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
3. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – Toshkent: Fan, 2003. –215 b.
- 4.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil.
- 5.Toxtaxodjayeva M.X. "Pedagogika nazariyasi"/ OTM uchun darslik.- T.: "Iqtisod- moliya", 2010. 136-140-b.
- 6.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent, Moliya, 2003.- 172b.
- 7.O'rinova N.M., Kadirova M.R., Djalalov B.B., Baydjanov B.X.. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. Farg'ona: "Poligraf super servis. 2022.
- 8.Азизхўжаев Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат / Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2006. – 139 б.